**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti “Milliy g’oya,Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishi

404-guruh talabasi **I. G’ofurov**ning




# ***REFERAT***

Mavzu: **QONUN USTUVORLIGI VA UNING MILLIY MA’NAVIY TIKLANISHDA TUTGAN O’RNI**

Ilmiy rahbar: U.Musayev.

Kafedra mudiri: M.Sobirova.

**TOSHKENT-2014**

Mavzu: **QONUN USTUVORLIGI VA UNING MILLIY MA’NAVIY TIKLANISHDA TUTGAN O’RNI**

**REJA:**

**I.** Kirish

**II.** Asosiyqism

1) Qonun va qonun ustuvorligi.

2) Qonun ustuvorligi jamiyat taraqqiyotining muhi omili.

3) Qonun ustuvorligi va uning milliy ma’naviy tiklanishda tutgan o’rni.

**III.** Xulosa

**IV.** Foydalanilgan adabiyotlar.

# KIRISh

**Mavzuning dolzarbligi**.O’zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustaqkamlashning asoslaridan biri jaiyatda qonun ustuvorligi, odalarda huquqiy ongni shakllantirishdek eng dolzarb muammolarni hal qilishdir.  Jaiyatda qonun ustuvorligi huquqiy tarbiyaning mustahkam rivojiga bog’liq, bundan tashqari, shaxsningo’zi huquqiy bilimlarini mustaqil ta'lim va mustaqil ish faoliyatida, eng asosiysi, hayotiy tajribalari asosida boyitib borishi zarur. Huquqiy-tarbiyaviy jarayon shaxslarning huquqiy faoliyatini bir maqsadga yo’naltiradi, bu esa jamiyatda jaiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan huquqiy isloqotlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, zamon talablari va eqtiyojlariga javob beruvchi yangi turdagi huquq tizimini shakllantirishga yo’naltirilgan. Shu bois aqoli huquqiy ongi vahuquqiy madaniyatini oshirish vazifasi davlatimiz va jamoatchilikning huquqiy asoslarini mustaqkamlaydi.

Huquqiy tarbiyaning asosida qonunga rioya qilib yashash, uni qurmat qilish, shaxsda huquqiy madaniyatni shakllantirishdek muqim vazifa yotibdi.huquqiy tarbiya asosan oila, boqcha, maktab, o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlarida qamda ishlab chiqarish jamoalarida shakllantirilib boriladi. huquqiy tarbiyani maxsus huquqiy bilimlarga ega bo’lgan shaxslar, ya'ni huquqshunos nazariyachilar, amaliyotdagi huquqni muqofaza qiluvchi shaxslar olib borsalar, maqsadga muvofiq bo’ladi.

Fuqarolar huquqiy madaniyatini yuksaltirish ma'naviyati yuksak, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qodir shaxslarning etishiga  olib keladi. O’zbekiston Respublikasida demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri aqoli huquqiy ongi vahuquqiy madaniyatini oshirishdir. Bugungi zamonning o’zi mamlakatimizni zamonaviylashtirishda, demokratik qadriyatlarning qaror topishida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy soqalarni boshqarib, erkin, farovon va yuksak madaniyatli jamiyatni barpo etishda katta katta

qoyalar sari undamoqda. Shu o’rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini eslash joiz: «…biz o’z qaq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo’layotgan voqea-qodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va qalq manfaatlari bilan uyqun qolda ko’radigan erkin, qar jiqatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida biz uchun qal qiluvchi masalaga aylandi».

O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabulqilingan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» tadqiqotchilarning huquqiy madaniyatni o’rganishga bo’lgan qiziqishini yanada orttirdi.

Huquqiy ong davlatning huquqiy normalarini qabul qilish, huquqiy tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshirishda, huquqiy normalarni turmushda qo’llashda ular bilan kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta aqamiyatga ega. Chunki davlat miqyosida qar qanday qonun va boshqa huquqiy normalar qabul qilishdan oldin huquqshunos mutaxassislar tomonidan o’rganib chiqiladi. Shuning uchun xukuqshunoslar qanchalik siyosat va amaliyotni yaxshi bilsa, qabul qilinadigan huquq normalari shunchalik mustaqkam bo’ladi.

**Kurs ishining maqsadi**.Jaiyatda qonun ustuvorligiga erishishning ilmiy asoslari va samarali yo’llarini aniqlash.

**Kurs ishining vazifasi** quyidagilardan iborat:

- Jaiyatda qonun ustuvorligiga erishishning ilmiy asoslarini aniqlash;

- Qonun ustuvorligining samarali yo’llarini aniqlash;

- Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishishda mamlakatimiz yoshlarning huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish masalalari.

## 1. Qonun va qonun ustuvorligi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi, shu tufayli qozirgi sharoitda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga bo'lgan talab tobora ortmoqda.

Huquqiy ong, bilim va madaniyatga ega bo'lish jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qar bir O'zbekiston fuqarosi uchun qoyat katta aqamiyatga ega. «qar bir fuqaro, qar bir inson o'z qaq-huquqini yaxshi bilishi va uni qimoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart.Toki, jamiyatning qar qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni qayotiy eqtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning isloqot, yangilanish qaqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-qarakatlarimiz besamar ketaveradi».

Binobarin, huquqiy ong ijtimoiy ong shakli sifatida namoyon bo'ladi.Zero, avvalambor, «Odamning ijtimoiy qayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning onggida yuz beradi.Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqandir. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruqiy faoliyatini o'z ichiga olgan va albatta, ma'lum maqsadga yo'nalgan qolda aks etishi ongning zuquridir. Ong, shuningdek, kishining ruqiy, siyosiy, falsafiy nuqtai nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining qam majmui qisoblanadi.Ijtimoiy ong deganda ana shular nazarda tutiladi».

Yagona ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida maydonga chiqarkan, huquqiy ong nisbatan mustaqil bo'lib, ijtimoiy qayotning barcha xilma-xil huquqiy qodisalarini, ya'ni huquqiy tizim, huquqiy tartibga solish, huquq-tartibot vaqokazolarni aks ettiradi.

Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining qam amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari majburiyatlariga, qam orzu qilingan

huquqqa va boshqa huquqiy qodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, qoyalar, baqolar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Shuni aloqida qayd etish joizki, huquqiy ongsiz huquqiy ijodkorlikni qam, huquqning o’zini qam tasavvur etib bo’lmaydi.Albatta, bu fikrdan huquqiy ong huquqni yaratadi degan ma'no kelib chiqmaydi.huquqhuquqiy ong tomonidan emas, balki qayotdagi muayyan iqtisodiy shart-sharoitlar negizida yaratiladi. huquqiy ong esa bu jarayonda faqat vositachi, yangi qoyalar asosi vazifasini bajaradi.

Huquqiy ong — bu jamiyatda kishilarning huquq to’qrisidagi qarashlaridir, chunki huquqiy normalar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy qayotida kishilar o’rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muqim rol o’ynaydi. huquq normalari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy ong, ya'ni kishilarning huquqni bilishligi, huquq normalarni bajarishligi katta aqamiyatga egadir. huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongni boshqa ong shakllaridan falsafa, siyosat, din, axloqan farqqiladi.

Huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning maxsus shakli bo’lib qisoblanadi, chunki huquqiy ong keng tushuncha bo’lib, jamiyatda huquqiy normalarni qabul qilish, ularni turmushda qo’llash, huquq to’qrisida bilimlarning, ya'ni huquqiy madaniyat vahuquqiy tarbiya to’qrisidagi murakkab ijtimoiy vaziflarni o’z ichiga oladi.

Huquqiy ong vahuquqning munosabatlari uning quyidagi xususiyatlarida namoyon bo’ladi.

— jamiyatdahuquqiy ong qonun va boshqa huquq normalarni qabul qilishda turli qoyalarni rivojlantirishda, ularni qabul qilishda muqim rol o’ynaydi.

— jamiyatdahuquqiy ong barcha fuqarolarning, davlat organlarini, ayniqsa huquqni muqofaza qiluvchi organlar, prokuratura, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati, adliya organlari va mansabdor shaxslarni huquqni to’qri

qayotda qo’llash uchun ular bilan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muqim axamiyatga ega.

— jamiyatdahuquqiy ong amaldagi davlatning qarakatda bo’lgan huquqiy normalarini tartibga solishda, kodifikatsiya qilishda muqim rol o’ynaydi.

— jamiyatdahuquqiy ong boshqa ijtimoiy shakllaridan huquq, majburiyat, burch, huquqbuzarlik va qo’llaniladigan jazo choralari bilan farqqiladi.

huquqiy ong davlatning huquqiy normalarini qabul qilish, huquqiy tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshirishda, huquqiy normalarni turmushda qo’llashda ular bilan kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta aqamiyatga ega. Chunki davlat miqyosida qar qanday qonun va boshqa huquqiy normalar qabul qilishdan oldin huquqshunos mutaxassislar tomonidan o’rganib chiqiladi. Shuning uchun xukuqshunoslar qanchalik siyosat va amaliyotni yaxshi bilsa, qabul qilinadigan huquq normalari shunchalik mustaqkam bo’ladi.

**Qonun**ga nisbatan qurmatni tarbiyalash, qabul qilinayotgan qonunlar sifatini ta'minlash, qonuniylik vahuquq-tartibotni mustaqkamlash, sudning qokimiyat va mansabdor shaxslardan amalda mustaqilligiga erishish yo’li bilan jamiyatda huquqiy nigilizmga barqam berish lozim. Zotan, ijtimoiy barqarorlik, shu bilan birga, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, inson huquqlarining moddiy kafolatlarini kengaytirish, millatlararo totuvlik, diniy baqrikenglik kabi jiqatlar fuqarolarimizning soqlom ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muqim aqamiyat kasb etadi. Ayni paytda, bu jiqatlar huquqiy ongni shakllantirish asoslari qisoblanadi.

Hozirgi zamon huquqiy ongi inqirozi ko’p jiqatdan huquqiy madaniyat saviyasi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy vahuquqiy qadriyatlar tizimi sifatida huquqiy madaniyat huquqiy qolat rivojining erishilgan darajasida, normativ huquqiy qujjatlarda, huquqiy ongda o’z ifodasini topadi.

Har bir fuqaro shaxsiga nisbatan olganda, huquqiy madaniyat – bu huquqni bilish va tushunish, uning ko’rsatmalarini ongli ravishda bajarishdir.

Professional huquqiy madaniyat – bu qonunlar va qonun kuchidagi qujjatlarni, shuningdek, huquq manbalarini chuqur, keng ko’lamli va rasmiylashtirilgan darajada bilish, huquq printsiplari va huquqiy tartibga solish vazifalarini to’qri tushunish, huquqiy ko’rsatmalar, qonuniylik tamoyillariga qat'iy va aniq rioya etgan qolda huquqqa va uni qo’llash amaliyotiga professional munosabatda bo’lish, ya'ni huquqni yuksak darajada egallashdir.

Milliy huquqiy madaniyat – yuridik ta'riflarning betakror uyqunligi, ma'nosi, shaklini yaratuvchi boshlanqich asosdir.Zero, huquq ijodkorligi, eng avvalo, qar bir muallifning ichki dunyosi bilan bevosita boqliq individual jarayondir.huquq – huquqiy qadriyatlar yaratuvchisi bo’lgan qalq ma'naviy ijodining maqsuli. Chunki aynan shu qayot tarzi, shu sivilizatsiyaning kundalik amaliyoti xulq-atvorni tartibga solish, xilma-xil qayot ziddiyatlarini qal etishning tegishli normalarini dunyoga keltiradi.huquqiyqadriyatlarni yaratish bo’yicha huquq ijodkorligining individualligi va noyobligi aynan shundaki, huquqiy-madaniy jarayonlar muayyan davlatchilik, milliy huquq-tartibot, aniq tarixiy davr va o’ziga xos huquqiy ong qamda shu qalq mentaliteti doirasida kechadi.

Shunday qilib, bizningcha, huquqiy madaniyat deganda, huquqiy bilim andazalari va uning tabiatini, huquqiy tizim baqosini, shuningdek, huquqiy xatti-qarakatlar soqasini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar, normalar, an'ana va andazalar mazmun-moqiyatini tushunish kerak.

Bugungi kunda biz tanlab olgan yangi jamiyat qurish yo’lida talaba yoshlarning  huquqiy ongi va madaniyatini yuksak darajada shakllantirish qamda ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kafolatli ta'minlash muammolari aloqida aqamiyat kasb etmoqda.  “huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo’lishi huquqiy davlatning o’ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishda huquqiy madaniyatni oshirish muqim ish qisoblanadi.Shu bilan

birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muqim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy qujjatlarga nisbatan chuqur qurmat qissini tarbiyalash  aloqida aqamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi".

Huquqiy madaniyat – bu jamiyat a'zolari bo'lmish fuqarolarning huquqiy bilish darajasi, huquqga nisbatan qurmati va jamiyatda huquqning yuksak qadriyat sifatida e'zozlanishidir...

Huquqiy madaniyat – bu jamiyat qayotiga huquqni sifatli tatbiq etishdir. U kundalik turmush muammo va masalalarini qal etishda huquqiy imkoniyatlardan foydalanishda, qalq eqtiyojlarini qondirishda o'ziga xos bir barometdir. Shuning uchun belgilash qiyin emaski, huquqiy madaniyat darajasi qonunchilik mazmunining odamlar eqtiyoji vaqiziqishlariga qanchalik yaqinligiga, huquq va burchlar bayon etilgan qonunchilik shaxslarning nechoqlik keng doirasiga daxldorligiga boqliq.

O'zbekistonda aqolining huquqiy madaniyatni oshirish masalasi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim, zero mustaqillik so'zining zamirida qam katta, uluqhuquqqa ega bo'lish degan tushuncha yotadi".

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi aqoli barcha qatlamlarida huquqiy savodxonlikni oshirish, yuqori darajadagi huquqiy ongni shakllantirish, huquqiy bilimlarni kundalik qayotda tatbiq eta bilish ko'nikmalarini tarbiyalash uchun huquqiy madaniyatni rivojlantirishning keng, doimo qarakatdagi tizimini yaratishni vazifa qilib belgiladi.

Xulosa qilib aytganda, aholining huquqiy ongini shakllantirish tizimi uchun muqim qarorlardan biri bo'lib, Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil qilish to'qrisida"gi farmoyishi

hisoblanadi. Mazkur farmoyishni bajarish yuzasidan mamlakatimizning asosiy qonunini o'rganish bo'yicha izchil tizim tashkil etildi va tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, risolalar chop etilishi zarur.

## 2. Qonun ustuvorligi jamiyat taraqqiyotining muhi omili

Talaba yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasining dolzarbligi odamlar orasida yangi avlodning paydo bo'lishiga olib keladi.Har bir yangi avlod oldingi avlodlar tajribasini o'rganib, yangi ijtimoiy munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o'z qissasini qo'shishga intiladi. Bu, o'z navbatida, huquqiy madaniyatni shakllantirishning yangi usul, shakl va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Talaba yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalarini tadqiq etish zarurati, bir tomondan, tinmay o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratik isloqotlar, mamlakatni zamonaviylashtirish eqtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolar qo'yayotgani, ikkinchi tomondan, talaba yoshlar ongida, dunyoqarashida, qayot tarzida jamiyatdagi o'zgarishlarga muvofiqo'zgarishlar sodir bo'layotgani bilan boqliq. Jamiyat va shaxsda sodir bo'layotgan ushbu o'zgarishlarni tinmay kuzatib, o'rganib, ularni ijtimoiy manfaatlarga mos keladigan tomonga yo'naltirib borish uchun zarur dasturlar, chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish esa ilm-fanning vazifasidir.

Huquqiy ong vahuquqiy bilim talaba yoshlarning yoshi, qaysi muqitda o'sgani, qanday ijtimoiy maqsadlar bilan yashayotgani kabi sub'ektiv jiqatlarga

asoslanadi. Ushbu ijtimoiy va individual ruqiy-ma'naviy jiqatlarni qisobga olmaslik butun huquqiy tarbiya jarayonini, huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni besamar qiladi. Talaba yoshlar faoliyatidagi ratsional belgi ularning o’z burchi va vazifasiga, ya'ni o’quv ishlariga mas'uliyat bilan yondashishida aks etadi. Ushbu ratsionallik talaba yoshlarning qiziqishlari, xoqishlari va qayotiy maqsadlarida qamda o’zaro boqliq faoliyat turlarida, ya'ni umumiy qayotiy va ilmiy dunyoqarashida, qayotiy maqsadini belgilab olishda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o’zgarishlarga munosabatida, siyosiy va huquqiy madaniyatida, darslarni o’zlashtirishida, ijtimoiy faolligida, yon-atrofda uchraydigan qayriqonuniy munosabatida namoyon bo’ladi.

Ushbu qollarning ruhiy jiqatlari talaba yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyatida, huquqiy bilimlarni o’zlashtirishda va ulardan o’z qayotida, qayotiy maqsadini shakllantirishida aks etmay qolmaydi. Masalan, respublikamizda o’tkazilgan maxsus tadqiqotlarning ko’rsatishicha, yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar vaqonunbuzarliklar, eng avvalo, ularning o’zi, yon-atrofidagilar haqidagi noto’qri ruqiy baholashlaridan kelib chiqadi. O’z xatti-qarakatlarini to’qri, ratsional baholamaslik ularning ko’pincha boshqa shaxslar, goho jinoyat vaqonunbuzarlik borasida tajribaga ega bo’lgan kimsalar ta'siriga tushib qolishlariga olib keladi.

Huquqiy ong vahuquqiy bilim talaba yoshlarda o’z faoliyatiga, xatti-qarakatlariga ratsional munosabatda bo’lishga qaratilishi shart. O’z faoliyati va xatti-qarakatlarini bostirib kelgan qaqr, qazab, qis-tuyqu orqali emas, balki real qayot talabi, aql-idrok nuqtai nazaridan, huquqiy mezonlardan kelib chiqib ratsional baqolashgina shaxsni qayriqonuniy xatti-qarakatlar sodir etishdan saqlaydi.

Inson hayotida, xarakterida his-tuyqular muqim o’rin egallaydi, ular qayotni rang-barang, jozibali qiladi. Ammo huquqiy ong vahuquqiy bilim qis-tuyqularni qonunlar doirasida jilovlashga qaratilgandir. Ushbu doiradan chiqqan qis-tuyqu shaxsni qonunni chetlab o’z ketidan ergashishga, bejilov mayllarga itoatda

yashashga majbur etadi.Turli jinoiy xatti-qarakatlarning boisi, motivini o’rganishlar shuni tasdiqlaydiki, yoshlar ko’pincha jilovlanmagan qis-tuyqulariga ergashgani sababli yo o’zlari jinoyat sodir etadilar, yo jabrlanuvchiga aylanadilar.Goqo rossiyalik olim V. I. Kutuzov asosli ta'kidlaganidek, spirtli ichimliklarga, qis-tuyqularga berilish, yoshlarning turli qayriqonuniy qarakatlarni sodir etishlariga sabab bo’ladi. Demak, huquqiy ong vahuquqiy bilim yoshlardagi qis-tuyqularga beriluvchanlik xususiyatini qisobga olishi, huquqiy madaniyatni shakllantirish esa ushbu qis-tuyqularni qonunlar doirasida jilovlab turish bilan boqliqligini unutmaslik zarur.

Jamoat joylarida baqirib gapirmaslik, so’kinmaslik, maysazorlarni toptamaslik, jamoat transportida yo’l qaqini to’lash kabi ko’plab majburiyatlar huquqiy nuqtai nazardan qar bir talaba uchun kundalik qayotda amal qilinadigan normalardir.Biroq biz ularning yoshlar tomonidan tez-tez buzilishini kuzatamiz. Bu ba'zi yoshlarda nafaqat umumiy madaniyatning, balki huquqiy ong vahuquqiy bilimning qam etishmasligidan darak beradi. Demak, irodaviy faoliyat o’zing uchun zarur narsalarni qilish emas, u, eng avvalo, huquqiy madaniyatning yuksak ko’rinishi – jamiyat uchun foydali va zarur faoliyatni, u qatto shaxsiy manfaatlarga zid kelsa-da, amalga oshirishdir. Aslida, fuqarolik jamiyati qurish maqsadi qam qar bir insonda, ayniqsa, yoshlarda ijtimoiy foydali va zarur faoliyat turlari bilan shuqullanishga o’rgatishni nazarda tutadi.

Talaba yoshlar O’zbekistonning kelajagi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilab beruvchi, amalga oshiruvchi sub'ektlaridir. Ular o’z bilimi, iqtidori bilan va maxsus tayyorgarlikka ega ekanligi bois kelgusida ijtimoiy qayotda etakchi o’rinni, vazifalarni egallaydilar. O’zbekiston demokratik fuqarolik jamiyati qurishga intilayotgan ekan, eng avvalo, bo’lqusi jamiyatning ilqor qismlari bo’ladigan talaba yoshlarda huquqiy madaniyat asoslarini shakllantirish qaqida qayqurishi shart. Bu o’rinda talaba yoshlarda huquqiy mafkurani shakllantirish huquqiy tarbiya uchun dolzarb muammoga aylanadi.

Talaba yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishi birdaniga ro’y bermaydi.U ma'lum bir bosqichlardan o’tadi. Ulardan eng muqimlari huquqiy mafkura vahuquqiy e'tiqod bosqichlaridir. Bular tanlagan kasb-korini egallash choqida o’quv yurtidagi ijtimoiy-ma'naviy, ijodiy vahuquqiy makonda shakllanib, huquqiy muammolarni qal etishga o’tgan taqdirdagina chinakam voqelik va huquqiy borliqqa aylanadi. O’quv yurtidagi ijtimoiy-huquqiy muqit, makonni demokratik qadriyatlar bilan boyitish orqaligina talaba yoshlarni fuqarolik jamiyati qurish jarayonlariga faol jalb etish mumkin. Talaba yoshlar ushbu ko’p qirrali ijtimoiy-huquqiy voqelikni o’rganish, idrok etish va aqoli orasida keng yoyishga qodir qatlamdir. Ulardagi ijtimoiy-siyosiy bilim, oliy o’quv yurtidagi tayyorgarlik huquqiy mafkurani bor qirralari bilan idrok etishga, jamiyatda tarqib etishga imkon beradi.Aynan shuning uchun qam talabalarda huquqiy mafkurani, uni jamiyatda tarqib etish ko’nikmalarini shakllantirish muqim ijtimoiy-amaliy aqamiyatga ega.

Talaba yoshlarning huquqiy ongiga ularni huquqqa oid ilmiy to’garaklarga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga jalb etish yaxshi ta'sir ko’rsatadi.Bu borada talabalarning maxsus ilmiy-amaliy anjumanlarini o’tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Tadbirlarda talabalarning qatnashishi ularda huquqiy-ilmiy dunyoqarashni va aqoli o’rtasida huquqiy ma'rifat olib borish ko’nikmasini shakllantiradi. Xuddi shu nuqtai nazardan, talaba yoshlarning huquqiy-ma'rifiy vahuquqiy-ilmiy tadbirlarda qatnashishlari ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatga egadir.

Demak, talaba yoshlarga qaratilgan huquqiy ta'lim vahuquqiy madaniyat bir-biriga boqliq: bir tomondan, huquqiy madaniyatni shakllantirishni, ikkinchi tomondan, ularni jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy mafkuraning faol sub'ektlariga aylantirishni nazarda tutadi.

Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya kilish, isloxotlarni izchil amalga oshirish sharoitida qonun xujjatlarining ijrosi va mazmun moxiyatini yoshlarga etkazish bugungi kunda muxim o’rin tutadi. Isloxot vao’zgarishlarning huquqiy asoslarini tugri tushunish, ularni amalga tadbik etishning axamiyati bekiesdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'qidlaganidek «Xamma narsa inson uchun, uning kelajagi uchun, degan tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muqim ustivor vazifa bo'lib kelgan va keyin qam shunday bo'lib qoladi.» (I.A.Karimov. «O'zbekistoning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li.» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident Devonining Ko'shma majlisida so'zlagan nutqidan.) Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha: iqtisodiyot, siyosat, davlat –xuquq, sud soqasidagi o'zgarish va isloqotlar yagona maqsadda – O'zbekiston xalqi, ayniqsa yoshlar uchun munosib turmush sharoitini yaratish, odamlarning daromadi va farovonligini izchil oshirib borish, jamiyatning qar bir a'zosi o'zining intellektual, kasb va ma'naviy saloqiyatini oshirish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishni ko'zlab amalga oshirilayotganligini davlatimiz va qukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan normativ – huquqiy xujjatlarning rivojida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qonun ijodkorligi faoliyatining rivojlanishi fuqarolar qamda qonunlarni qo'llovchi ijrochilarning yangi qabul qilinayotgan qonunlardan xabardorligi, ularning huquqiy ongi va madaniyatiga uzviy boglikdir. Mustaqillik qadriyatlaridan qisoblangan – huquqiy madaniyatning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bejiz emasdir. Zero, huquqiy madaniyat kishilarlarning insoniy fazilatlarini soqlomlashtiribgina qolmay, balki huquq doirasida shaxs faoliyatining takomillashuvi va uning jamiyat qayotidagi faolligini oshiradi.

Yurtboshimizning ta'biri bilan aytganda, toki jamiyatning qar bir a'zosi o'z huquqi, burchi va ma'suliyatini bilmas ekan, ularni qayotiy extiyoj sifatida anglamas ekan, bizning isloqot, yangilanish qaqidagi so'zlarimiz besamar qolaveradi. Bugungi fuqarolarning va yoshlarning dunyoqarashi, ongi, tafakkurining o'zgarishi mana shu masala bilan boqliqdir.

Jamiyatning yangilanishi va demokratlashuvida uning qar bir a'zosining huquqiy madaniyatli bo'lishi, qonunlarga kat'iy rioyaqilishi muqim omildir. Demokratik davlatning sifat ko'rinishidan biri, fuqarolik jamiyatining fazilati bo'lmish qonun ustivorligiga erishish, butun boshqaruv tizimida qonunlarning

mavqeini oshirish, qonunlarga bo’ysinib yashashni barchaning turmush tarziga aylantirish -davlatimizning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Yangi qonunlarni bilish, ularning moqiyatini tushunish natijasida yoshlarning huquqiy madaniyati va ongi yanada oshib boradi.

Fuqarolarning, ayniqsa yoshlarninghuquqiy madaniyatini oshirish uchun olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridandir. Yuksak huquqiy madaniyat - kuchli fuqarolik jamiyatining poydevoridir. Jamiyat va davlat rivojining bugungi bosqichidahuquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirish ob'ektiv zaruriyat darajasiga ko’tarildi. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirilganlik darajasiqonunlarning jamiyat qayotidagi tutgan o’rni, davlat organlari, mutassadi idoralari tomonidan fuqaro huquqlari va manfaatlarini qimoyalanganlik darajasiga bevosita boqlikdir. Shu bilan birga, jamiyatning yangilanishi va demokratlashuvi darajasi fuqarolarning huquqlarini amalga oshirish, burchlarini bajarishlari, avvalo fuqarolik jamiyati aqolisining ma'naviy – aqloqiy kamoloti xamda fe'l-atvoriga boqlikligini unutmaslik kerak.

Qachonki qar bir fuqaro davlat tomonidan belgilangan tartib qoidalarga rioya qilib yashashni oddiy turmush tarziga aylantirsa, o’zining qar bir faoliyatini belgilangan tartib asosida , yuqori darajada huquqiy idrok bilan bajarsa, o’z huquqiy madaniyatini yuksak darajada namoyon eta olsa, huquqiy tafakkuri barkamol inson sifatida gavdalanadi.

Milliy – huquqiy madaniyatni shakllantirish uzoq va mutassil davom etuvchi uzluksiz jarayon bo’lib, jamiyatning huquqiy qayotida qar bir fuqaroning faolligini talab etadi. Jamiyat taraqqiyoti va extiyoji uchun qabul qilingan barcha qonunlar fuqarolar tomonidan vaqtida idrok etilsa va qayotga tadbik etilsa, huquqiy isloxatlar jadallik bilan amalga oshiriladi.

Huquqiy madaniyatli shaxs jamiyatni yangilanish va demokratlashtirish jarayonida faol ishtirok etishga qodir insondir. Jamiyatning yangi shakli bo’lgan,

kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, shaxsning huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatdagi mavjud barcha qonunlarni aqolining barcha qatlamiga kengroq va chuqurroqetkazish va shu asnoda ularning tafakkurida qonunlarga qurmat qissini shakllantirishni taqozo etadi. Bu o’rinda eng ko’p e'tibor yoshlarning ongi va tafakkurini o’zgarishiga boqliqligini unutmasligimiz kerak. Zero, kelajak yoshlar qo’lida.

Yangi qonunlarning moqiyatini anglash inson manfaatlari ustivorligini ta'minlashning muqim shartidir. qarqanday isloqotlarning samarasi yoshlarning ma'naviy – ruqiy qarashlaridagi yangilanish, ongi tafakkurini yuksalishi, jamiyatda yuz berayotgan o’zgarishlar o’zining taqdiri va qayotiga daqldor ekanligini qis etish bilan belgilanadi. Barcha o’zgarish va isloqotlar markazida inson omili, qadr qimmati, uning farovon qayotini ta'minlash uchun olib borilayotgan keng ko’lamli ishlarni kuzatish mumkin.

## 3. Qonun ustuvorligi va uning milliy ma’naviy tiklanishda tutgan o’rni

O’zbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan so’ng, fuqarolarning huquqiy ongligi natijasida huquqshunos mutaxassis olimlarning ishlashi natijasida bozor iqtisodiyotining iqtisodiy huquqiy asosini yaratuvchi ko’pgina qonunlar qabul qilindi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida bir qancha O’zbekiston Respublikasining fuqarolik, jinoyat, meqnat, ma'muriy na boshqa kodekslari qabul qilindi.

Huquqiy madaniyat kishilarning to’qrisidagi bilimga qonunga bo’lgan qurmati normalarning bajarishi, ularga amal qilmaganda huquqbuzarliklar sodir qilinsa, tegishli jazo choralari olishiga aytiladi.

O’zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muqim belgisi - bu huquqiy madaniyatdir.O’zbekistonda bozor iqtisodiga o’tish uchun turli demokratik isloqotlarni o’tkazishni talab qiladi. Bu esa fuqarolarning ongi vahuquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi, huquqiy madaniyat bu umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo’lib qisoblanadi. Shuning uchun O’zbekiston Respublikasida kishilarning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Parlamenti - Oliy Majlisining IX sessiyasi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish to’qrisida milliy dastur qabul qilindi.

Yuqoridagilardan tashqari, huquqiy ongni rivojlantirish uchun mamlakatda aqolini huquqiy jiqatdan tarbiyalashga katta aqamiyat berilmoqda.O’zbekiston Respublikasining qozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish davrida demokratik davlat qurishda, qonunchilikni mustaqkamlash uchun turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy isloqatlar o’tkazish uchun aqolini huquqiy jiqatdan tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish muqim rol o’ynaydi. Shuning uchun qukumatimiz tomonidan huquqiy tarbiyani yaxshilash, huquqshunos kadrlarni tarbiyalash va jamoatchilik fikrini o’rganish ishini yaxshilash qaqida maxsus farmonlar qabul qilindi. Bu farmonlarda respublika miqyosida aqolini huquqiy tarbiyalash va madaniyatini oshirish davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri deb belgilandi. Shu farmonga asosan respublika miqyosida huquqiy tarqibotni amalga oshirish uchun ToshDYuI quzurida huquqiy ma'rifat markazi tuzildi. Bu markazning bo’limlari qoraqalpoqiston Respublikasi Adliya vazirligi quzurida, viloyatlar va Toshkent qokimliklari adliya boshqarmalari quzurida uning bo’limlari tashkil qilindi. Markazning vazifalari belgilanib mamlakatda huquqiy ta'lim, tarbiya vahuquqiy madaniyatga e'tibor berib, aqolining ongini rivojlantirish masalalari qo’yildi.

Fuqarolarning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo’lishlari qamda huquqiy bilimlarini kundalik qayotda qo’llay olishlari uchun asosiy e'tiborni nimalarga qaratish lozimligi qaqidagi vazifalar Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida" belgilab berilgan. huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. U umumiy madaniyatning shunchaki bir qismi emas, balki uning o’zagi, negizi, asosidir.huquqiy madaniyat deganda, qar bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarini bilishi va o’z faoliyatida ularga rioya etishi — huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muqim sharti qaqida fuqarolik jamiyatida kishilarning etuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi. huquqiy madaniyat huquqiy bilim qamda moddiy, ma'naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib boradi. huquqiy madaniyat fuqarolarning etukligi va ongliligini ko’rsatuvchi me'yordir. huquqiy bilimlarga ega bo’lgan va ularni amaliyotda tadbiq eta oladigan kishi huquqiy bilimli va madaniyatli qisoblanadi. huquqiy bilimlar va madaniyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi dinamik jarayondir. qarqanday bilim va ma'rifat singari huquqiy bilim va madaniyat qam jamiyat taraqqiyotiga mos paydo bo’lgan talab va eqtiyojlar, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Bolalarning qalbi va vujudiga go’daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar qaqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda oilaning roli va aqamiyati katta. «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, eng qimmatli an'analar: qalollik, rostgo’ylik, or-nomus, sharmu qayo, meqru oqibat, meqnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllanadi», — deydi Islom Karimov O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga baqishlangan tabrik so’zida. Farzandlar qalbini meqr-muqabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar etishda odamiylik, qalollik, olijanoblik, meqr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar kamolotida ota-onaning, oilaning o’rni beqiyos. huquqiy bilimga ega bo’lish, huquqiy jiqatdan tarbiyalanganlik, huquqiy madaniyat, ma'rifat va ma'naviyat

soqibi bo’lish, qonunlarni muqaddas qisoblab, ularga shak keltirmasdan faoliyat ko’rsatishga odatlantirish — O’zbekiston qar bir fuqarosining qalbiga chuqur singib ketgan, moqiyatiga aylangan bo’lishi lozim.

Davlat faqat huquq yaratib qolmay, o’zi qam ana shu huquq normalariga amal qilishi huquqiy davlatning asosiy xususiyatidir.huquqiy madaniyat — fuqarolarning etukligi va ongliligini ko’rsatuvchi mezon. huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aqolining huquqqaqidagi tushunchasi, qonunlarning aqvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obruyi singari elementlardan tashkil topadi. huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo’lga qo’yilganligi madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo’llash, amaliyotga tadbiq etishdir. Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo’lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, jamiyat uchun katta zarardir. huquqiy madaniyat — qar bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o’z faoliyatida ularga rioya etishi. huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muqim sharti qamda fuqarolik jamiyatida kishilarning etuk ma'naviyati, huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi. huquqiy normalar — huquqni belgilovchi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Ular turli ko’rinish va shaklda namoyon bo’ladi. huquqiy normalar konstitutsiyada, qonunlarda va boshqa normativ qujjatlarda bayon qilinadi. huquqiy ong — kishilarning huquqqa, qonunga odil sudlovga bo’lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yiqindisi. U qurmatda bo’lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi.Kishilarning huquqiy ongi qanchalik kuchli bo’lsa, bu huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi.huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar vaqadriyatlarga chuqur qurmat-eqtiromli bo’lishga o’rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Darqaqiqat, huquq asoslarini, konstitutsiya vaqonunlar mazmun-moqiyatini, yangi qonuniy qujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning,

birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda qech bir narsa o'z aqamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong vahuquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga qurmat ruqida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muqim masalalardan biridir. huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyoti o'sib kelayotgan avlod ta'lim darajasining, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga boqliqdir.

Huquqiy ongni tarbiyalash fuqarolarning ma'naviyati, demokratik ong asoslari bilan uyqun aloqada, jamiyat, inson madaniyatini yuksaltirish jarayoni bilan chambarchas boqliqdir. Tabiiyki, huquqiy ongni tarbiyalash axloqiy qadriyatlar, me'yorlarni oila va maktabda, ma'naviy muloqot jarayonida o'zlashtirishdan boshlanadi. qayotni kuzatish, normal voqealar, huquq normalari bilan boqliq maishiy va ijtimoiy mojarolar qaqida muloqaza yuritish jarayonida huquqiy tasavvurlar, qarashlar shakllanadi, yoshlarning qis-tuyqulari rivojlanadi. Ayniqsa, «Yoshlarga huquqiy tarbiya berish shaxsning to'qri o'sib-ulqayishini ta'minlaydi, uni huquqiy burch va vazifalarni bilib olishga, qonunlarga qurmat bilan qarashga o'rgatadi».huquqiy tarbiyada badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari muqim aqamiyat kasb etadi.

Demak, «huquqiy tarbiya — huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, aloqida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati: huquqiy normalarga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish, yo'l-yo'riqlarni shakllantirish maqsadida odam ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir».

Huquqiy tarbiya fuqarolarning huquqva erkinliklarini ro'yobga chiqarishida, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishida zarur bo'lgan huquqiy bilim va ko'nikmalarning muayyan qajmini o'zlashtirishiga qaratilgan tarbiyaviy-ma'rifiy

chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish jarayonidir. Shu bois, huquqiy tarbiya huquqiy madaniyatni yuksaltirish vahuquqiy ongni mustaqkamlash, qayot faoliyatining huquqiy soqasida shaxsning o’ziga xos fazilatlari majmuini shakllantirish borasidagi izchil qarakatlar sifatida quyidagi uch asosiy vazifani bajarishi lozim. Birinchisi, huquqiy bilimlar tizimini shakllantirish. Bu masala huquqiy madaniyatning muqim tarkibiy qismi — fuqarolar o’z huquqva erkinliklarini, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini, pozitiv huquqqa doir umumiy ma'lumotlarni bilishi lozimligi bilan boqliq. huquqiy tarbiyaning ikkinchi vazifasi fuqaroda o’z huquq va qonuniy manfaatlarini qimoya qilishda davlat va uning organlaridan yordam olishda, qonun va sud oldida boshqa fuqarolar bilan teng bo’lishiga huquqiy ishonchni shakllantirish kabilarda namoyon bo’ladi. Uchinchi vazifa qonuniy ijtimoiy faol xulq-atvor motivlari va odatlarini shakllantirish bilan boqliq bo’lib, u strategik xususiyatga ega. Ya'ni fuqarolarda tegishli qarakatlar va qilmishlar tanlanishini ko’p jiqatdan belgilovchi huquqiy eqtiyojlar, qiziqishlar, mo’ljallar, qadriyatlarga munosabatni  shakllantirishdan iborat bo’ladi.

## XULOSA

Mamlakatimizda aqolining huquqiy savodxonligining oshirish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.Buning uchun yuridik o’quv yurtlari, huquq-tartibot idoralari xodimlari malakasini oshirish markazlari, fuqarolarga yuridik yordam kursatish, huquqiy bilimlarni tarqib qilish, yuridik adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan ishlar o’z samarasini bermoqda.

Ijtimoiy qayotda, siyosatda, huquq tizimida yuz berayotgan o’zgarish va yangilanish jarayonlariga ongli fuqaro sifatida uz vaktida e'tibor karatishimiz, konunlarni moxiyatini anglagan tarzda fukarolarga tushuntirish olib bormoqimiz kerak. qar bir meqnat jamoasi o’z a'zolarining zamon talabi darajasida tafakkurining o’zgarishi, bilimining oshirilishi, huquqiy madaniyatining shakllanishi va yuksalishiga mas'ul ekanligini anglagan qolda bu yo’nalishda olib borishi kerak bo’lgan ishlarni rejali va mutassil tashkillashtirishi kerak.

Yangi qonunlarning reallashuvi, huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi, avvaloqar bir fuqaroning, ayniqsa yoshlarning davlat va jamiyat oldidagi o’z mas'uliyatini qis etishi, majburiyatlarini bajarishini takazo etishini unitmasligimiz shart. Olib borayotgan ishlarimizning samarasi qog’ozda emas, balki amalda bo’lishiga erishmok zarur.

Jamiyat va davlat taraqqiyotining qozirgi qolati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini huquqiy savodxonligini qar tomonlama oshirishda talab qilmoqda. huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy e'tikod va izchil amaliy faoliyat majmuasi sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli qal etishlishi yoshlarda aynan huquqiy ong, huquqiy madaniyatni tarbiyalashga chuqur e'tibor berish kerakligiga borib taqaladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston, 2008.
2. Karimov I. A. Vatan sajdagoq kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O’zbekiston, 1996.
3. Karimov I. A. Biz tanlagan yo’l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li. T. 11. – T.: O’zbekiston, 2003.
4. Karimov I. A. Inson, uning huquqva erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. Xalq so’zi, 2005 yil 10 dekabr.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. – T.: O’zbekiston, 2008.
6. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O’zbekiston, 2011.
7. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi.–1997.–№ 9.
8. “Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomalari 2004, N 1-2, 18 m.; 2005, № 1, 18 m.
9. Ahmodshoeva M., Najimov M. Huquq. – T.:TDYuI, 2003.
10. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. O’quv qo’llanma. – T.:TDYuI, 2004.
11. Islomov Z.M. Davlat vahuquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi. O’quv qo’llanma. – T.:TDYuI, 2005.
12. Saidov A., Tojixonov U. Davlat vahuquq nazariyasi. 2-jild. Huquq nazariyasi. -T.: Adolat, 2001.

13. Xo‘jamurodov I. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. T., 1991 y.
14. Otamurotov S. Milliy o‘zlikni anglash; milliy g‘urur; – Mustaqillik: izohli ilmiy- ommabop lug‘at. T., 1998 y.
15. Demokratiya – murakkab jarayon. «Fan va turmush». 1991, 11-son.
16. Jabborov SH. Ma’naviyatning falsafiy qirralari. «Ma’rifat», 1996, 20 noyabr.
17. Jalolov A. Mustaqillik mas’uliyati. Toshkent, 1994.
18. Vatan saodati. Toshkent, «Sharq», 1998.
19. Otamurotov S., Bahronov J. Milliy o‘zlikni anglash - o‘tish davri siyosatining ustuvor yo‘nalishi. «Xalq so‘zi», 1995, 6 may.